

**M.Ernazarova , A.Bobomurodova**

Boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etish

metodlari va dars shakllari

**Navoiy – 2007**

## MUNDARIJA:

Kirish .....	3 – 4– bet
2 – sinf o`quvchilarining yosh xususiyatlari va ona tilini o`rganish imkoniyatlari .....	4 – 12– bet
2 – sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etish metodlari va shakllari .....	12 – 25– bet
O`qituvchilar uchun tavsiyalar .....	25 – bet
Foydalanilgan adabiyotlar .....	25 – 27 – bet

**M.Ernazarova, A.Bobomurodova**

Boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etish

metodlari va dars shakllari. Boshlang'ich sinf

o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

**Mualliflar:**

**M.S.Ernazarova - pedagogika fanlari nomzodi**

**A.Ya.Bobomurodova - pedagogika fanlari nomzodi**

**MAS'UL MUHARRIRLAR :**

- 1.Nortojiyev B.N. - Metodika markazi direktori.  
2.Qurbonova X.Q. - Til va adabiyot  
ta'limi metodikasi kafedrasini mudiri.

**TAQRIZCHILAR:**

- 1.Yusupov T.J. - filologiya fanlari doktori.  
2. Suyunov M. - NDPI Pedagogika fakulteti dekani.

Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy kengashi nashrga tavsiya etgan.

*(2005-yil 27-iyun 6-sonli yig'ilish bayonnomasi)*

- 3.Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. PTM T 1994 – 15 bet.  
4.Davletshin M-5 Ta'limning psixologik asoslari. T, O'qituvchi,  
1978 – 70 bet.  
5.Kryteskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T, O'qituvchi,  
1976-302 b.  
6.Leventuev P.I. Chudkovskiy V.E., Bolalar psixologiyasi  
ocherklari. T, 1964.

- 7.Leont'yev A.N.Problemi razvitiya psixiki. Moskva, 1965, 137 bet.  
8.Lerner I.Ya. Didakticheskaya sistema metodov obucheniya.  
M, 1976, 64 bet.  
9.Lvov M.R. Razvitie pechi mladshix shkol'nikov M, 1985, 128-b.  
10.Maxmutov M.I. Maktabda problemali ta'limni tashkil qilish,  
T. 1981,195 b.  
11.Pedagogik izlanish. (Tuzuvchi: I.N. Bejehova) T, 1940 y. 604 bet  
12.Umumiy psixologiya (Petrevskiy tahriri ostida)T, 1975 y  
13.O'zbek tilining izohli lug'ati. M. 1981 y. 631 bet.  
14.G'oziev E. Psixologiya. T, 1994, 223 b.  
15.G'ulomov A, Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni T,  
1995, 124 b.  
16.G'ulomov A. Ona tili o'qitish jarayonida aktivlik prinsipini  
amalga oshirishning nazariy asoslari. T, 1989, 130 bet.  
17.G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T, 1992  
y, 90 bet.

## **O`qituvchilar uchun tavsiyalar.**

1. Ona tili o`qituvchisi ta`limiy o`yinlarni tanlash va uni o`tkazishda o`quvchilarning yosh xususiyati, bilim saviyasi, o`yinning o`quvchilarda zaruriy bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilganligi, dars maqsadi bilan o`yin maqsadi orasidagi uyg`unlikni ta`minlash, o`yinning ularda o`qish istagini, bilim olish va izlanish xohishini vujudga keltirishi, o`yinda ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning birligi kabilarni hisobga olishi kerak.

2. Ona tili ta`limi jarayonida darsda o`yin vaziyatlarini yaratish, o`yin darslari tashkil etishga alohida e`tibor berish, takrorlash mashg`ulotini muntazam ravishda “Topqirlar bellashuvi” tarzida o`tkazish, bunday bellashuvlarni muayyan guruhlar yoki ikki sinf o`quvchilari o`rtasida tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi.

3. Ta`limiy o`yin – topshiriqlar tuzishga o`zlarini ham jalb ettirish, bu murakkab ishini muvaffaqiyatli bajargan o`quvchilarni rag`batlantirib borish va tuzilgan o`yin - topshiriqlarni yig`ib “Ona tilidan o`yin - topshiriqlar” fondini tashkil etish foydalidir.

4. Ona tili o`qituvchilarining ta`limiy ish rejalarida tashkil etiladigan o`yin darslarini rejalashtirishni foydali deb bilamiz.

5. Maktab darsliklaridagi ayrim mashqlarni o`yin – topshiriq tarzida berish, ona tilidan topishmoqlar va sinfdan tashqari ish sifatida boshqotirmalar berib borish ma`quldir.

6. Boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun ona tilidan o`yin – topshiriqlar, topishmoqlar va boshqotirmalar majmuasini yaratish yaqin kelajakda bajarishi zarur bo`lgan vazifa deb o`ylaymiz.

## **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Barkamol-avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. (Prezident I. Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi II sessiyasida so`zlagan nutqi, 1997 y 29 avgust) T, 1998 y, 63-b.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy ta`limini tashkil etish to`g`risida”gi 203-qarori, “Ma`rifat” ro`znomasi, 1998, 13 may.

## **KIRISH**

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining ona tilidan egallagan bilim saviyasi ko`pdan beri hammamizni tashvishga solayotgani hech kimga sir emas. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning ijodiy fikrlash darajasi eng asosiy muammolardan biridir. Biz ko`p hollarda o`quvchini daryo o`rtasida turib suv izlayotgan shaxsga o`xshatamiz. Daryo to`la suv–bola chanqoq. Lug`atlarimiz so`zga to`la, o`quvchining bisotida so`z kam. Bu holat, avvalo, ona tili ta`limi mazmuni bilan chambarchas bog`langan.

Ta`lim mazmuni o`quv rejalari, dastur va darsliklar hamda o`quv-tadrijiy qo`llanmalarda o`z ifodasini topadi. Ona tili fanini o`qitishning samaradorligi juda ko`p omillar bilan chambarchas bog`langan. Bular ichida ona tili ta`limi mazmuni muhim va etakchi sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o`quvchilarga “Nimani o`qitish” masalasi bilan chambarchas bog`liq. Ona tili ta`limidan o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko`nikmalar tizimi to`g`ri belgilansagina, “Qanday o`qitish kerak” degan savolga javob topish mumkin. Demak, samaradorlik avvalo ana shu ikki omil bilan bevosita aloqadordir.

Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilanmog`i kerak: ona tili orqali boshlang`ich sinf o`quvchilarida ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini og`zaki va yozma shakllarda to`g`ri, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish lozim. Ona tili mashg`ulotlarida asosiy e`tibor o`quvchilarga tilning grammatik qurilishini emas, balki ularning so`z boyligini oshirish, so`zdan to`g`ri va o`rinli foydalanish, fikrini sharoitga mos ravishda ifodalay olish ko`nikmalarini kengaytirishga qaratilmog`i zarur.

Yosh avlodni tarbiyalashda o`z ona tilida aniq, tushunarli, ta`sirchan, chiroyli so`zlashga o`rgatish masalasi asosiy o`rinda turadi. O`quvchilarni savodli, o`z fikrini to`g`ri va erkin bayon qila oladigan, nutq madaniyatiga ega kishilar qilib tarbiyalash vazifasi dastlab boshlang`ich ta`lim bosqichida amalga oshiriladi. Nutqni yaxshi egallagan, o`z tilining imkoniyatlaridan keragicha foydalana oladigan o`quvchi, albatta, boshqa o`quv predmetlarini ham ancha oson va to`liq o`zlashtiradi, ularda bilim va madaniyatga bo`lgan intilish kuchayadi.

Ona tilining boshlang'ich kursida, asosan, nutqiy tadbirkorlikni rivojlantirish, orfoepik va imlo savodxonligini oshirish, soʻz va uning maʼnolari ustida ishlash, nutq sharoitiga mos ravishda soʻzdan toʻgʻri va oʻrinli foydalanish malakalarini shakllantirishga alohida eʼtibor beriladi.

Oʻquvchilarning oʻrganishi uchun tavsiya etilgan har bir mavzu, ularning yosh xususiyatlari va ona tilini oʻrganish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda berilishi hamda taʼlim samaradorligini taʼminlovchi metod va usullarini toʻgʻri tanlay olishi kerak. Shunday qilsakgina, biz oʻylagan natijaga erishishimiz mumkin.

### **Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yosh xususiyatlari va ona tilini oʻrganish**

#### **IMKONIYATLARI**

6-7 yoshdan boshlanadi. Bu davrda bola maktab talablariga ancha koʻ Boshlangʻich sinflar uchun ona tili oʻquv fanini oʻrganish, asosan, nikkat, asosiy mashgʻuloti oʻqish ekanligini anglagan, fikri, tushunchasi bogʻcha yoshidagi bolalik davriga nisbatan ancha rivojlangan, eng muhimi, psixologik jihatdan oʻqishga tayyor davr sanaladi.

“Taʼlimga psixologik tayyorgarlik deganda, - deb qayd qiladi E.Gʻoziyev, - bolaning obʼektiv va subʼektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi? Bu yoshdagi bolalarda idrok ancha oʻtkirlashadi, oʻqishga qiziquvchanligi oshadi, xayoli yorqinlashib, xotirasi chiniqadi, tafakkur doirasi nisbatan kengayib, ijodiy fikrlashga moyillik ortadi.

Boshlangich sinf oʻquvchilarida yaqqol obrazli xotira ancha taraqqiy etgan boʻladi. Bu yoshda oʻquvchilar koʻrgan, kuzatgan narsalarini xotirada uzoq vaqt saqlay oladi. Shu sababli ona tili mashgʻulotlarida koʻrsatmali vositalardan: diafilʼm, oʻquv filʼmlari va audiovizual vositalardan unumli foydalanishga jiddiy eʼtibor qaratishga toʻgʻri keladi.

7-11 yoshli bolalar oʻqiganini yoki eshitganlarini etarli darajada tushunadi; oʻz fikrlarini ona tilida izchillik bilan bayon qila oladi;

mantiqiy operatsiyalarni kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish singarilarni bemalol bajara oladi; oʻrganganlari asosida umumlashma hosil qilishi mumkin.

tuzish, oʻrganilgan mavzular asosida kichik yozma matnlar hosil qilish, oʻquvchilarning shaxsiy kuzatishlari, tajribalari, koʻrgan eshitgan voqea – hodisalari haqida matn yaratish, boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirish, “Onajonim”, “Oʻzbekistonim”, “Ona tilim” v.h. mavzularda matn yaratish, sheʼriy yoʻlda berilgan matnni nasriy yoʻlda bayon qilish singari yoʻnalishlarda matn yaratish topshirilsa boʻladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ona tili taʼlimining samaradorligi oʻqitish metodini toʻgʻri tanlash, “Ona tili” fanining amaliy yoʻnalishidan kelib chiqib, taʼlim jarayonida koʻproq oʻquvchini oʻylashga, fikrlashga undovchi, oʻquv topshiriqlarini ishga solish, oʻquvchilarda bilish - oʻrganish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakllaridan foydalanish singarilar bilan bogʻliq.

Oʻquvchini taʼlim jarayonining subʼektiga aylantirishda taʼlimiy oʻyinlar hal qiluvchi omillar sanaladi. Ona tilidan tashkil etiladigan didaktik oʻyinlar oʻquvchini izlanishga, ijodiy faoliyat koʻrsatishga, oʻrganilayotgan til hodisalarining mohiyatini aniqlab, hukm va xulosalar chiqarishga undaydi. Taʼlimiy oʻyinlar har bir oʻquvchiga oʻzini namoyish etish, oʻz fikr – mulohazalarini himoya qilish, topshiriqni shavqu - zavq bilan bajarish imkoniyatini beradi. Har bir shaxsda tarbiyalanishi zarur boʻlgan ijobiy sifatlar: tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, xushyorlik, qatʼiyatlik, bilimdonlik, mustaqillik, tadbirkorlik, ijodkorlik kabilar koʻpincha taʼlimiy oʻyinlar orqali tarkib toptiriladi.

Ona tilidan tashkil etiladigan taʼlimiy oʻyinlar oldin egallangan bilimlarni faqat xotirada tiklashni va uni takrorlashni, shu egallangan bilimlarni qisman yangi sharoitda (notanish sharoitda) qoʻllashni va tomomila yangi sharoitda qoʻllashni talab etishi mumkin.

Dars mashgʻulotlarida faqat bir xildagi oʻyin - topshiriqlar bilan cheklanib qolmay, balki koʻproq ijodiylikka undovchi oʻyin – topshiriqlarga eʼtiborni kuchaytirishga toʻgʻri keladi. Zero, oʻquvchilarni fikrlashga, oʻylashga, matn yaratishga oʻrgatmasak, hozirgi zamon darsiga qoʻyilgan muhim talab shaxsning rivojlanishiga erishib boʻlmaydi.

**“Tez top” o‘yini.** O‘qituvchi o‘quvchilarga xalq maqollaridan namunalar aytadi. O‘quvchilar esa bunday maqollar qatorini davom ettiradi. Ulardan sanoq sonlarni aniqlaydilar hamda shu maqollarning ma‘nolari ustida ish olib boradilar. Sonlarni o‘z ichiga olgan maqollarni belgilangan miqdorga yetkazib, ularning ma‘nosini tushungan va izohlab bera olgan o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi.

Namuna: “Bir bolaga etti mahalla ota-ona”, “Sanamay sakkiz dema”, “Bir yil tut ekkan kishi, yuz yil gavhar teradi”, “Bir kalla - kalla, ikki kalla tilla”...

O‘quvchilarning imlo savodxonligini oshirish maqsadida **“To‘g‘ri yozgan g‘olib bo‘lar, yaxshi ilmu tolib bo‘lar” o‘yin – topshirig‘idan** foydalansa bo‘ladi. Bu o‘yinda o‘qituvchi ma‘lum bir sonlarni raqam bilan taxtaga yozadi va ularni imlo qoidasiga muvofiq yozishni talab etadi. Masalan, 1-2, 3-4, 5, 10 ta, 15 ta, 40, 55, 60 ta, 70-80 ta, 90, 100, v.h.

Raqamlar bilan ifodalangan sonlarni so‘zlar orqali to‘g‘ri yozgan o‘quvchilar o‘yin sharti asosida g‘oliblikni qo‘lga kiritishlari mumkin.

Darsning noan‘anaviy shakllaridan yana biri **“Topqirlar bellashuvi” darsidir.** Bu darsni tashkil etish uchun sinf o‘quvchilari avvalo ikki guruhga ajratiladi. Guruhlar o‘rganilgan 3-4 mavzu doirasida oldindan savol va topshiriqlar tuzadilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim saviyasini hisobga olib, bu topshiriqlar bevosita o‘qituvchi rahbarligida tuzilgani ma‘qul. Bellashuvda birinchi guruh ikkinchi guruhga va ikkinchi guruh birinchi guruhga savol va topshiriqlar beradi. O‘qituvchi qaytarilgan javoblarni tahlil qiladi va har bir guruhga ballarini e‘lon qiladi. Ko‘p ball to‘plagan guruh o‘yin g‘olibi sanaladi.

“Topqirlar bellashuvi” darsini har xil shakllarda o‘tkazish mumkin”, Masalan, **“So‘zlar olamiga sayohat”, “Gaplar olamiga sayohat”, “To‘siqlarni yengib o‘taman”** v.h. kabi.

O‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatish ham DTS talablaridan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ona tili fanidan matn yaratishga o‘rgatish bir qator ta‘limiy vositalarni ishga solishni talab etadi.

O‘quvchilarga rasmlar asosida og‘zaki va yozma matnlar

O‘qituvchi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan qaysi yo‘nalishda ish tutsa, ular tez shunga moslashadi. O‘quvchini fanga qiziqtirish, undagi qobiliyatni yuzaga chiqarish kichik sinf o‘qituvchisidan mohirlikni, o‘ziga xos uslubiyatni, bolajonlikni talab etadi. Shu sababli ona tili mashg‘ulotlarida o‘qituvchi nafaqat qayta xotiralanishga asoslangan o‘quv topshiriqlardan, balki qisman ijodiy topshiriqlardan ham unumli foydalanishi lozim. Ijodiy topshiriqlar ustida ishlash bolalarning yoshi va bilim saviyasi oshgan sari asta-sekin murakkablashib boradi.

Bola ilk bor maktabga qadam qo‘ygan ekan, ma‘lum so‘z jamg‘armasi bilan keladi. U oilada, bog‘chada ko‘p so‘zlarni ishlatsada, hali ularning ma‘nosini chuqur anglamaydi. 8-9 yoshli bolalar esa bir yildan ziyodroq tajribaga ega bo‘lgan bolalar bo‘lib, ularda dars jarayonida mustaqil xulosalar chiqarish ancha tarkib topgan bo‘ladi. Mashhur psixolog V.A. Kruteskiyning ta‘kidlashicha, bu davrda ular o‘z oldilariga “Nima uchun bunday?” – “Nima uchun shu narsani o‘rganish kerak?” degan savolni qo‘ya oladigan bo‘lishadi. Bu davrda ular “Nima uchun o‘z ona tilimizni bilishimiz kerak?” degan savolga javob bera oladilar. Ona tilini o‘rganish ularning nutqiy muloqot doirasini kengaytirishini, badiiy, ilmiy adabiyotlarni o‘rganishlariga keng yo‘l ochib berishini anglay boshlaydilar.

Ma‘lumki, boshlang‘ich sinflardagi o‘qish, avvalo, psixik jarayonlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ularda sezgi, idrok, xotira, tafakkur kabi individual psixik xususiyatlar ancha tarkib topadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z idroklarining aniqligi, sofligi, o‘tkirliги bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Ular har bir o‘rgatilayotgan til materiallariga sinchkovlik bilan qaraydilar, dars jarayonida duch kelinadigan so‘zlarni tez qabul qiladilar. Ona tilini o‘rganishga bo‘lgan intilishlari ancha ortadi. Bu yoshdagi o‘quvchilarda tarkib topa boshlagan sinchkovlik idrokni ancha o‘tkirlashtiradi. Ba‘zan bu yoshdagi bolalar kattalarning diqqat-e‘tiboridan chetda qolgan mayda-chuydalarni ham payqaydilar. Shu bois o‘qituvchi dars mashg‘ulotlarida sinchkovlikni tarkib toptirish va rivojlantirishga alohida e‘tibor berishi lozim.

Boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilar idrokining yana bir xususiyati uning xilma-xilligi, yorqin bo‘yoqlar, yaqqol tasvir va his – tuyg‘uga boyligidir. Shuning ushuni bu yoshda o‘quvchilar

rangli tasvirlarni, his - tuyg`u uyg`otadigan rasmlarni yoqtiradilar. Ammo bu o`rinda shuni ta`kidlash lozimki, me`yorida ortiq rangli rasmlar bolani charchatib qo`yadi va rasmlarga tez-tez murojaat etish uni zeriktiradi. Shuning uchun 2,-3,4-sinflar uchun “Ona tili” darsliklarini haddan ziyod rasmlar bilan to`ldirish maqsadga muvofiq emas.

O`quvchilarning o`qishi, bilim olish xususida gap ketar ekan, diqqatning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ham unutmaslik lozim. “Diqqat, -deb qayd qilinadi. “O`zbek tilining izohli lugat”da, – e`tiborini bir joyga to`plamoq, yig`moq, uni biror narsaga qaratmoq demakdir”.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining diqqati xususida fikr yuritilganda uni yetarli darajada barqaror emasligini unutmaslik lozim. Bu yoshdagi bolalar diqqatlarini muayan narsaga qaratib turishda qiynaladilar. Bolalar diqqatining barqarorligi, psixologlar keltirgan ma`lumotlarga qaraganda, miyada tormozlanish bilan qo`zg`alishning o`zaro nomuvofiq harakat qilishidir. Ona tili mashg`ulotlarida o`quvchilarning ko`p hollarda tutulishi, to`xtab qolishi, so`zni burro, aniq talaffuz eta olmasligi, yozishda ba`zan harf, bo`g`in, so`zlarning tushib qolishi mana shu fiziologik holat tufayli sodir bo`ladi.

Psixologiya fanidan olib borilgan qator tadqiqotlar boshlang`ich sinf o`quvchilarining darsda 30-35 daqiqadan ortiq o`z diqqatlarini muayan ob`ektga qarata olmasligini ko`rsatadi. Bu ona tili mashg`ulotlarida ta`lim usullarini tez-tez o`zgartirib turishni, o`quv topshiriqlarining rang-barangligini ta`minlashni taqozo etadi. Chunki ta`lim usuli yoki o`quv topshirig`i o`zgartirilishi bilan o`quvchilarning unga munosabati ham o`zgaradi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari diqqatidagi bu xususiyat vaqti-vaqti bilan mashg`ulotning turini o`zgartirishini, norasmiy darslarning turli-tuman ko`rinishlaridan foydalanishni talab etadi.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda xotira ham o`ziga xos xususiyatlarga ega. “Xotira” deganda shaxsning o`z hayotiy tajribasini saqlab turishi va keyinchalik esga tushurishi tushuniladi. (7,306,-bet)

Psixologik adabiyotlarda xotiraning ikki turi: 1) so`z –

ishtirokida gaplar tuzish, ularning ma`nosini tushuntirish kabi ijodiy - amaliy ishlar topshiriladi. Topshiriqni birinchi bajarib bo`lgan guruh eng yuqori ball bilan mukofatlandi.

**“Belgilarini izohlang” o`yini.** O`yinni o`tkazishda o`quvchilar uch guruhga ajratiladi. 1-guruh qovunning rang - tusini, 2-guruh esa shakl- hajmini, 3-guruh uning maza - ta`mini bildiruvchi sifatlarni topishadi.

1-guruh: ko`k, oq sariq, sarg`ish

2-guruh: katta, kichik, uzun, dumaloq.

3-guruh: Shirin, mazali, to`yimli

O`qituvchi qovunning rasmini taxtaga ilib qo`yadi-da, 1-guruhdan maza – ta`mini ifodalovchi, 2- guruhdan rang – tusni, 3-guruhdan shakli –hajmi bildiruvchi sifatlarni aniqlashni topshiradi. Shu uyaga kiruvchi barcha so`zlarni yozib chiqqan o`quvchilar o`yin g`olibi sanaladi.

**“Nima yaxshi-yu, nima yomon” o`yini.** Bu o`yin talabiga ko`ra o`quvchilar o`z tengdoshlaridagi yaxshi va yomon xususiyatlarini aniqlashlari, qanday o`quvchilar odobli, qanday o`quvchilar odobsiz ekanliklarini aytish topshiriladi.

Namuna: yaxshi xususiyatlar–aqli, odobli, zehni, shirinsuxan, xushmuomala, bilimli, bilimdon, dono, kamtar, farosatli.

Yomon xususiyatlar: aqlsiz, beodob, yolg`onchi, aldoqchi, dangasa, yalqov, ishyoqmas, berahm.

**“Juftini tanlang” o`yini.** Bu o`yinda o`qituvchi juft sifatlarning birinchi qismini aytib boraveradi, o`quvchilar esa uning har ikkala qismini daftarlariga yozib boradi. Berilgan sifatlarning juftini to`g`ri yozgan o`quvchilar o`yin g`olibi sanaladilar.

Namuna: mayda - chuyda, yaxshi - yomon, past – baland, uzoq - yaqin, shirin - achchiq, oq-qora, v.h.

**“Qanday sonni qo`yamiz” o`yini.** Bu o`yinda so`z birikmalaridagi nuqtalar o`rnini son bilan to`ldirish topshiriladi va belgilangan vaqtda uni to`g`ri bajargan o`quvchilar guruhi g`olib sanaladilar. Tavsiya etilgan so`z birikmalari: o`quvchi, ... maktab, ... daraxt, ... xona, ... tramvay, ... ko`cha, ... un, ... beda, ... tuproq.

Namuna: 3 ta o`quvchi, 1-maktab, 4 ta daraxt, 12 –xona, 11-tramvay, 7- ko`cha, bir qop un, bir bog` beda, bir siqim tuproq.

Shu soʻzlarni yozishda qaysi biri bosh harf bilan va qaysi biri kichik harf bilan yozilishiga eʼtibor berib, uni toʻgʻri yozgan oʻquvchi yoki oʻquvchilar guruh gʻolibi boʻladi.

“Oʻzbekistonning mashhur daryolari”, “Shaharlar haqida oʻylarim” kabi matnlardan atoqli va turdosh otlarni alohida ajratib yozishga oid oʻyinlarni tashkil etish mumkin

**“Qoʻyilgan savollarga toʻgʻri javob top” oʻyini.** Oʻzbekiston qaysi mamlakatlar bilan chegaradosh? Oʻzbekistondagi qaysi shaharlarning nomlarini bilasiz?, Oʻzbekistonda qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi?, Oʻzbekistonning qaysi mevalari olamga mashhur savollariga toʻgʻri javob bergan oʻquvchilar bellashuv gʻolibi boʻladi.

Oʻqituvchi dars davomida **“Oʻz qishlogʻing nomini sharhlay olasanmi?”** oʻyin - topshirigʻidan foydalanib, atoqli otlar imlosi ustida ishlash mumkin. Buning uchun oʻqituvchi oldin bu mavzuni oʻquvchilarga vazifa qilib beradi va ota – otangiz, bobo – momolaringdan **“Oʻz qishlogʻingiz tarixi”** haqida maʼlumotlar toʻplab keling deb topshiriladi.

**“Oʻrmonda va hovlida” oʻyini.** Oʻqituvchi oʻyin haqida oʻquvchilarga izoh beradi: Oʻrmonda yashaydigan yovvoyi hayvonlar va hovlida yashaydigan uy hayvonlari haqida oʻylang hamda ularni ikki ustunga alohida ajratib yozib chiqing deyiladi. Oʻquvchilar yozadilar:

Oʻrmonda:	Hovlida:
Boʻri	Qoʻy
Tulki	Ot
Sher	Sigir
Ayiq	Echki

Qaysi oʻquvchi yoki oʻquvchilar guruhi belgilangan vaqtda koʻp hayvon nomini yozsa oʻyin gʻolibi sanaladi.

**“Kichraytirish, erkalash otlarini tez top” oʻyini.** Oʻquvchilarni ikki guruhga boʻlib, birinchi guruhga kichraytirish otlarini, ikkinchi guruhga erkalash otlarini yozish, bu soʻzlar

mantiq xotirasi; 2) koʻrgazmali - harakatli xotira mavjudligi qayd qilinadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida mantiqiy (soʻz - mantiq) xotiradan koʻra koʻrgazmali - harakatli xotira ancha rivojlangan boʻladi. Shuning uchun ham ona tilini oʻrganish jarayonida nazariy maʼlumotlarni oʻzbek tilining imlo qoidalarini tushuntirish orqali oʻrganishdan koʻra sinf taxtasi yoki jadvalda yozilgan soʻzlarni, rasmda aks etgan narsalarni tushunish ancha oson kechadi.

Maʼlumki, 8-9 yosh bolalarda xotira ancha mustahkam boʻladi. Shu sababli bu yoshdagi bolalar oʻrganilayotgan oʻquv materialining mohiyatini anglab yetishdan koʻra, shu materialni iloji boricha soʻzma-soʻz yodlab olishga harakat qiladilar. V.A. Kruteckiyning fikricha, bu holning asosiy sababi, birinchidan, oʻquvchi oldiga esda saqlab qolish kerakligi vazifa qilib qoʻyilganda, hali u oʻzidan konkret nima talab qilinayotganligini tushunmaydi, nimalarni soʻzma-soʻz esda olib qolish kerag-u, nimalarni eng umumiy tarzda esda saqlab qolish kerakligini ajrata olmaydi, ikkinchidan, birinchi va ikkinchi sinf oʻquvchilari nutqini yaxshi egallamaganliklari tufayli matnning umumiy maʼnosini oʻz soʻzlari bilan aytib berishga qaraganda, uni soʻzma-soʻz aytib berish ular uchun osonroq tuyuladi.

Kichik maktab yoshida oʻquvchilar oʻz oldilariga oʻquv maqsadi qoʻyishda qiynaladilar. Shu boisdan ham ular faoliyatida ixtiyorsiz esda qoldirish muhim oʻrin egallaydi. Oʻqituvchi boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yoshi bilan bogʻliq ana shu xususiyatni hisobga olgan holda har bir soatlik ona tili darsidan koʻzlangan maqsadni oʻquvchilar ongiga singdirishga alohida eʼtibor qaratishga toʻgʻri keladi. Oʻquvchi dars mashgʻulotidan koʻzlangan maqsadni tushunib yetsa, uni oʻrganishga qiziqishi ortadi va oʻquv materialini xotirada saqlab qolishi osonlashadi.

Xotira – tarbiya mahsuli. Shuning uchun oʻqituvchi oʻz oʻquvchilariga materialni eslab qolish uchun muayyan intilishni tarkib toptirishi, asta - sekinlik bilan mantiqiy - aqliy faoliyat usullariga (kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish) oʻrgatib borishi lozim.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun taʼlim jarayonida oʻzini-oʻzi nazorat qilish; oʻrganilgan materialini

esga tushurish ; mashq qilishdan unumli foydalanishga to'g'ri keladi. Ona tili mashg'ulotlarining samaradorligi tilga olingan ana shu vositalar bilan chambarchas bog'langan. Talaffuzi va imlosi murakkab bo'lgan bir qator so'zlarni bir marta aytishi yoki yozib ko'rsatish bilan o'quvchi xotirasiga kiritish qiyin. Bu so'zlarning imlosini o'zlashtirish faqat qayta – qayta mashq mahsuli bo'lishi mumkin.

Bilishda xayolning ham katta ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik lozim. Xayol deganda o'ylash, fikr yuritish jarayoni tushuniladi. (13, 310-bet) Xayolning tarkib topishi o'quv faoliyatining ta'siri va talabalari asosida amalga oshadi. Bolalarning dars jarayonidagi ishtiroki, mashg'ulotlarda bo'ladigan savol-javoblar, turli xildagi o'quv topshiriqlarini bajarish, ertak va hikoyalar o'qishi, televedenie eshittirishlarini tamosha qilishi, kinofilmlarni ko'rishi, sayohatlarga borishi xayolni rivojlantirish vositalaridir.

Xayolning eng yuksak ko'rinishi ijodiy xayoldir. Ijodiy xayol surishga tayyor bo'lmagan o'quvchi bilimlarini o'zlashtirib olishda muayyan manbadan (o'qituvchining so'zi, darslik materiali) chetga chiqa olmaydi. Xayoli yetarli darajada taraqqiy topmagan o'quvchi o'quv materialini o'rganishi uchun ko'p kuch va vaqt sarflaydi, ammo yaxshi natijaga erishmaydi.

Boshlang'ich sinflarda “Ona tili” o'quv fanining tabiati ko'proq bolalardan ijodiy xayolni talab etadi. Chunki berilgan rasmlar yoki biror bir mavzu asosida og'zaki hamda yozma matn tuzishi, biror harakatni bildiradigan predmetning nomini yoki belgisini bildiradigan, uning son-sanog'ini, miqdorini bildiradigan so'zlarni o'zaro qiyoslab, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashma va xulosalar chiqarish ijodiy xayol mahsuli hisoblanadi.

Ta'limning samaradorligini ko'p jihatdan tafakkurning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. “Tafakkur – deb qayd qiladi psixolog M.T. Davletshin, - kishi aqliy faoliyatining yuksak formasi bo'lib, real borliqning bilvosita va umumlashgan intiqosi, borliqdagi buyumlar hamda hodisalar o'rtasidagi aloqa – munosabatlar va ularning umumiy xossalarning aks etish jarayonidir”.

**“Men boshlayman, sen davom ettir” o'yini.** O'quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdan bir so'zning birinchi qismini aytish, ikkinchi guruhdan esa shu so'zning ikkinchi qismini topish talab etiladi. (mas, do'st- ... baland - ... yosh - ..., tez - ..., qattiq - ... v.h) Bu o'yin partadoshlar orasida ham o'tkazilishi mumkin.

Ish - harakatni predmetning nomini, belgi va son – sanog'ini bildiruvchi so'zlar yuzasidan tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlar.

**“Bor ekanda yo'q ekan**

**Och ekanda to'q ekan”** o'yini. Bu o'yinda sinf ikki guruhga ajratiladi va har bir guruhdan bittadan o'quvchi tanlab olinib, ish-harakatni bildiruvchi o'nta so'z yozish topshiriladi. Belgilangan vaqtda topshiriqni to'g'ri bajargan guruh ertak aytish huquqini (yoki o'qituvchidan eshitishni) qo'lga kiritadi. Miriqib ertak eshitaladi va matndagi ish – harakatni bildiruvchi so'zlar topiladi va ularning ma'nosi izohlanadi.

**“Shart qo'yildi so'zning podshosi”** o'yinida ertaklardagi shohlar yoki malikalar biror ishlarni amalga oshirish uchun shartlar qo'yishi haqida o'quvchilardan so'raydi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari ertaklarni o'qishga qiziqishadi. Shundan keyin o'quvchilarga matndagi ish - harakatni bildiruvchi so'zlarni topish, ish– harakatni bajarilayotganligi yoki bajarilmayotganligini aniqlash, so'z podshosining shartlarini belgilangan vaqtda bajargan o'quvchilar o'yinda g'olib bo'lishadi va so'z podshosidan sovg'alarini olishadi.

**“Bir so'zdan ikki ism” o'yini.** Sinf o'quvchilari uch guruhga ajratiladi va ularga gulning nomlari, mehnat qurollari hamda hayvonlarning nomlarini yozish va shularga atab qo'yilgan kishi ismlarini yozish topshiriladi. O'quvchilar yozadilar:

1. rayhon - Rayhon, Chinigul – Chinigul, lola – Lola, nilufar - Nilufar.
2. bola – Boltaboy, tesha – Teshaboy o'roq – O'roqboy
3. bo'ri – Bo'riboy, qo'zi – Qoziboy olmaxon – Olmaxon, tulki - Tulki

**“Egizaklar” o`yini.** O`quvchilarga so`zlar tarkibida qo`sh undoshlar kelishini izohlashgach, ularni egizaklarga o`xshatish mumkinmi deyiladi. Bolalar uchun bu esda qoladigan, o`yin bo`la oladi. Agar bir xil (m,m,ll,cc) undosh bo`lsa, Hasan – Husan, ikki xil undosh qo`sh kelsa (nsh, st, nd) Hasan-Zuxra kabi obrazli o`xshatishlar aytilsa, o`quvchilar darrov shunday so`zlarni izlashadi, o`yin qiziqarli bo`ladi.

**Namuna:**

Hamma, amma, pilla, tilla, issiq, hassa.  
Ganch, do`st, go`sht, qand, vaqt, baxt

Egizaklarni joylashtiring.

- |                   |                       |
|-------------------|-----------------------|
| 1. ga ... (ganch) | 2. ga ... ar (gavhar) |
| ti ... (tinch)    | se ... ar (sehrGAR)   |
| ga ... (gancha)   | ra ... (rahm)         |
| shu ... (shuncha) | za ... (zargar)       |

O`quvchilardan qaysi biri topshiriqni to`g`ri bajarsa, o`yin g`olibi hisoblanadi.

**“Bir onaning bolalari” o`yini.** Bu o`yinda o`quvchilarga ish – harakatni, predmetning nomini, son-sanog`ini, belgisini bildiruvchi so`zlar ro`yxatini tuzish topshiriladi. Vazifani tez va to`g`ri bajargan o`quvchi “besh” baho bilan taqdirlanadi va o`yin g`olibi hisoblanadi.

**“Erkala va koyi” o`yini**

O`qituvchi birinchi qatordagi o`quvchilarga ota-ona tomonidan kichik yoshdagi bolalarni erkalovchi so`zlarni, 2-qatorga dangasa bolalarni koyishni ifodalovchi so`zlarni ro`yxat qilishni topshiradi. Erkalash va koyishni ifodalovchi so`zlarni ko`p topgan guruh o`yin g`olibi sanaladi.

**Namunalar:**

Erkalashni ifodalovchi so`zlar.

Oppog`im, dumbog`im, toychog`im, qo`zichog`im,  
ko`zmunchog`im, shirinim, ...

Koyishni ifodalovchi so`zlar:

Dangasa, ishyoqmas, ovsar, lapashang, landovur...

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar tafakkuri maktabga kelganga qadar ancha shakllangan bo`lib, u maktabda o`qish jarayonida takomillashib boradi. Boshlang`ich ta`lim davrida bolalarning idroki va xotirasi ustida ishlash tafakkurining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu davrda bolalardagi idrok va xotira sifat jihatdan qayta o`zgarishga uchraydi, ya`ni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanadi. O`qishning dastlabki paytlarida bolalar konkret tafakkur qilishadi. Ta`lim ta`siri bilan asta–sekin ularda tahlil qilinayotgan yoki o`rganilayotgan ma`lumotlarning mohiyatini anglash muhim xususiyat va belgilarning tafakkurda aks etishi bilan boshlandi.

Ma`lumki, psixologlar tafakkurining ikki darajada namoyon bo`lishini qayd qiladilar: 1) reproduktiv (tasavvur etish) tafakkur; 2) ijodiy tafakkur. Reproductive tafakkur o`quvchining tayyor bilimlar olishi va ularni tushunib olib, og`zaki yoki yozma ravishda eslab qolishi bilan xarakterlanadi. Ijodiy tafakkur jarayonida o`quvchi bilimlarni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil ravishda, aqliy faoliyat usullarini ishga solgan holda egallaydi. Bir soatlik dars mashg`ulotida o`qituvchi o`rni kelganda reproduktiv tafakkurga, o`rni kelganda esa ijodiy tafakkurga tayanib ish ko`radi.

Ta`limning samaradorligi o`quvchilardan hukm va xulosalar chiqara olish qobiliyatini ham talab qiladi. Ona tili mashg`ulotlarida hukm va xulosalar chiqarish; unli va undosh tovushlarni, so`z va qo`shimchalarni, gap qurilishlarini o`zaro qiyoslash; ularning o`xshash- farqli tomonlarini aniqlash; uyadosh so`z va qo`shimchalar ro`yxatini tuzish; ularni muayyan belgilariga qarab guruhlash singarilar asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun boshlang`ich sinf oquvchilarini bu aqliy faoliyat usullarini bajarishga o`rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqliy faoliyat usullariga o`rgatish, avvalo, o`quvchini ta`lim jarayonining sub`ekti (faol ishlovchisi) ga aylantirishni taqozo etadi. O`quvchi ta`lim jarayonining faol ishlovchisiga aylansagina, u til hodisalarini kuzatib, taqqoslab, ular o`rtasidagi o`xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, muayyan belgilariga qarab guruhlarga ajratadi. Har bir guruhni qanday qilib mustaqil

davom ettirish mumkinligini anglab yetadi, shaxsiy kuzatishlarga asoslanib hukm va xulosalar chiqara oladi. O`quvchining ta`lim jarayonining sub`ektiga aylanishi, o`qituvchini bu jarayondan chetda qoldirilmaydi, aksincha, uning ta`sirini kuchaytiradi. Bu murakkab jarayonda o`qituvchi nafaqat nazoratchi, balki tashkilotchiga, bevosita o`quvchi faoliyatining boshqaruvchisiga aylanadi.

Kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish o`zaro chambarchas bog`langan shunday aqliy faoliyat usullariki, ta`lim jarayoni ularning barchasini zaruriyatga aylantiradi. Ayni vaqtda bu faoliyat usullarining birortasi e`tibordan chetda qolsa, ikkinchisi ko`zlagan natijani bermaydi. Til hodisalarini taqqoslash uchun ularni diqqat bilan kuzata olmoq, guruhlash uchun qiyoslay olmoq, xulosa va hukmlar chiqarmoq uchun kuzatilgan, qiyoslangan va guruhlanganlarni umumlashtira olmoq talab etiladi. Masalan, "Shaxsning xususiyatini ifodalovchi so`zlar" mavzusini o`rganishda insonning xususiyati, uning belgilarini ifodalovchi so`zlar aralash holda berilgan mashqdan faqat insonning xususiyatini bildiruvchi (mas, chiroyli, xushmomila, serjahl, bosiq, samimiy, o`jar v.h) so`zlarni bir uyaga guruhlash topshiriladi. Ayniqsa, namuna sifatida bir uyaga mansub 2-3 ta so`zni berib, bu so`zlar ro`yxatini mustaqil davom ettirish, bolalarda aqliy faoliyat usullarini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Ta`lim jarayonida o`quvchilarning bilimga qiziqishlari ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik adabiyotlardan qiziqishning ikki turi bizga ma`lum.

Qiziqishning birinchi ko`rinishi myayyan paytda, muayyan faoliyat jarayonida qo`zg`aladigan qiziqish bo`lsa, ikkinchisi, maqsad qiziqishi bo`lib, tashqi ta`sir natijasida o`quvchi oldiga muayyan maqsadini qo`yib, uni shunga qiziqtirishdir. Har bir o`qituvchi o`z faniga nisbatan barqaror, bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga erishishlari lozim. "Ona tili" faniga qiziqtirish dars mashg`ulotlarini qiziqarli tashkil etish, topshiriqlarning rang-barangligiga erishish, ko`rgazmali, aydiovizual va texnik vositalardan unumli foydalanish, dars mashg`ulotlarining amaliy yo`nalishini kuchaytirish, o`quvchini ta`lim jarayonining sub`ektiga

### **"Doirada berilgan harflar asosida so`z tuz" o`yini.**

Oquvchilarda doira ichida 8 ta harf taqdim etiladi. O`quvchilar shu harflar ishtirokida so`zlar hosil qiladilar. Belgilangan vaqtda ko`p so`z hosil qilgan o`quvchilar yoki guruh g`olib sanaladi. Bu o`yinni, ayniqsa, unli va undosh tovushlarni o`rgangandan keyin o`tkazish maqsadiga muvofiq bo`ladi. Agar o`quvchilar e`tiboriga a, u, b, z, f, s, t harflari berilgan bo`lsa, ular bu harflarni qatnashtirib, bu, sab, tuz, bo`ta, aft, saf, bas kabi so`zlar hosil qiladilar.

### **"Keyingi bo`g`inni top" o`yini.**

Berilgan bo`g`inlar ishtirokida so`z tuzish tushuntiriladi. Qaysi o`quvchi ko`p so`z tuza olsa, "besh" baho bilan mukofatlanadi. Masalan, bo, bo`, jo`, ni, lo, sa, mu, no, hu, ko...

1. Bola, bobo, bozor, bodom, ...
2. Bo`gin, bori, bo`liq, bo`zchi ...
3. Jo`ja, jo`ra, jo`xori, jo`na ...
4. Nima, nizom, nido, nihol, ...
5. Lola, lochin, lobar, lozim ...
6. Savob, sarob, sadaqa, salom ...

### **"Talaffuzda adashmang" o`yini**

O`qituvchi o`quvchilarga **x** va **h** yoki **f-p** tovushlari ishtirok etuvchi so`zlardan aytishni topshiradi. O`quvchilar ikki guruhga bo`linib, topshiriqni bajarishlari mumkin. Shunda kim so`zni noto`g`ri aytsa, o`yindan chiqadi. Mavzu asosida so`zni aytgan o`quvchi shu so`zni taxtada yozadi va imlosi bilan taqqoslanadi. Belgilangan vaqtda eng ko`p to`g`ri so`z aytgan o`quvchiga, sinfda o`quvchilar o`z qo`llari bilan yasagan o`yinchoqlardan sovg`a sifatida beriladi.

### **Namuna:**

Shoh – davlat boshlig`i  
Shox – novda, daraxtning shoxi  
Xil-xil - saralangan – tanlangan  
Hil-hil - ezilib pishgan  
Uhladi-xafa bo`ldi, "uh" tortdi.  
Uxladi – uxlamoq - dam olmoq  
Hol-ahvol – (hol)ni so`radi.  
Xol – odam tanasida bo`ladigan xol.

**“Sirli kataklarni to‘ldir” o‘yini.** O‘quvchilarga kataklarni to‘ldirib, tovushdosh so‘zlar hosil qilish vazifa qilib topshiriladi. Masalan, toy so‘zini soy so‘zigacha davom ettirish talab etiladi.

Namuna: toy, loy, moy, voy, oy, choy, yoy, soy

Tavsiya etilgan so‘zlar.

1. bosh, tosh, osh, qosh, yosh, rosh
2. bol, pol, tol, sol, gol, mol, xol, hol

**“So‘z juftlarini davom ettir” o‘yini.** O‘quvchilarga san‘at – sanat, qal‘a – qala, she‘r-sher, sava-sava singari so‘zlar berilib, shunday so‘z juftlari tuzishni davom ettirish va ularning ma‘nosini sharhlash topshiriladi. Berilgan so‘z juftlarini belgilangan miqdorda (mas, 10-15 ta so‘z jufti) yetkazgan o‘quvchi g‘olib deb topiladi. Bu o‘yin sinf o‘quvchilarini guruhlariga ajratib, sinf taxtasida ham bajaririlishi mumkin. Qatordagi har bir o‘quvchi doskaga chiqib, bitta so‘z jufti yozadi va bo‘lmi ikkinchi o‘quvchiga tutgazadi. O‘yin shu tartibda davom ettiriladi.

**“Ikkala bo‘g‘inida bir xil unli bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzing” o‘yini.** Bu o‘yinda birinchi bo‘g‘inida ham, ikkinchi bo‘g‘inida ham bir xil unli qo‘llaniladigan so‘zlarni (mas, tutun, burun, burgut, uzun, mushuk, uchun, tushum v.h) topish va so‘zlar ro‘yxatini muayyan miqdorga yetkazish topshiriladi. Belgilangan miqdorda eng ko‘p so‘z topa olgan o‘quvchilar o‘yin g‘olibi sanaladi.

**“Domino” o‘yini**ni quyidagicha o‘tkazish mumkin. Bir o‘quvchi so‘z aytadi, shu so‘z qaysi harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlangan so‘zini boshga o‘quvchi aytishi kerak. Bu o‘yin shu tarzda davom ettiriladi. Namuna: ishla – adolatli – insofli – ilmi - inson – nargiz – zafar – rostgoy-yilnoma – anor – rubob.

**“Nazoratchi harf” o‘yini.** O‘qituvchi belgilangan harf asosida o‘quvchilarga so‘z yozishni taklif etadi. Masalan, o‘qituvchi shu harfning so‘z boshida kelishiga namunalar yozing deb aytadi. Ishni bajarish uchun aniq 2-3 minut vaqt belgilanadi. O‘quvchilar yozadilar: shodlik, shahar, shovqin, shalola, sharshara, sharafli, shar, sher, v.h. Belgilangan vaqtda ko‘p so‘z yozgan o‘quvchi birinchilikni oladi.

aylantirish singari omillar bilan chambarchas bog‘langan.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda fanga qiziqish o‘qituvchini sevishdan boshlanadi. Kichik maktab yoshida bolalar uchun eng katta obru bu oqituvchi. Bola ona tili fanidan dars beradigan o‘qituvchini sevsa, uning o‘qitadigan fanini ham yoqtiradi. O‘qituvchidan bezgan o‘quvchi uning fanidan ham bezadi. Kichik yoshli maktabxon har qanday bilimni o‘qituvchisi orqali idrok etadi. O‘quvchilar o‘qituvchining oliy himmat, kuyunchak, mehribon ekanligini, ularning har birini tushunish mahoratini hamda o‘tib ulg‘ayib, kamol topib borayotganligidan xursand bo‘lish qobiliyatlarini, o‘ta bilimli o‘qituvchi ekanligini sezishlari kerak. Ana shundagina, o‘quvchilarning sizga degan mehri tobora oshib boraveradi. Siz ularning eng yaqin mehribon kishisiga aylanassiz.

Ona tili ta‘limining samaradorligi ko‘p jihatdan bolalarning real o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog‘langan. Bolalarning real o‘quv imkoniyatini aniqlash, ularning o‘zlashtirish darajasi, o‘quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyati, o‘quv qiyinchiliklarini bartaraf eta olish imkoniyati kabilarni hisobga olish bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki, bolaning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o‘qitib bo‘lmaydi. Ona tili o‘qituvchisi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bilan hamkorlikda har bir bolaning real o‘quv imkoniyatini aniqlash, shundan kelib chiqib, o‘quv topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilashi lozim.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish va undan kelib chiqqan holda ona tilini o‘rganish imkoniyatlarini aniqlash quyidagi natijalarga erishishga ko‘maklashadi:

**1. Ona tili ta‘limi mazmunini o‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlariga muvofiqlashtirish.** “Ona tili” darsligida beriladigan o‘quv topshiriqlari, tushuncha va qoidalar sharhi yoki o‘qituvchi tomonidan tanlanadigan qo‘shimcha o‘quv materiallari bolalarning yosh xususiyatiga qancha muvofiq kelsa, samaradorlik shuncha yuqori bo‘ladi.

**2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyati va ona tilini o‘rganish imkoniyatlarini aniqlash dars mashg‘ulotini to‘g‘ri tashkil etish, pedagogik texnologiyalardan**

**maqsadga muvofiq ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi.** O`qituvchi bolalarning yoshini hisobga olsa, darsni to`g`ri tashkil etadi, o`qitishning maqsadga muvofiq metodini tanlaydi, muammoli vaziyatlar yaratadi va h.

**3. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yosh xususiyatini aniqlamay turib, "O`quvchi + o`quv topshirig`i + o`qituvchi" o`rtasidagi munosabatlarni to`g`ri belgilash mumkin emas.** O`qituvchi o`quv topshiriqlari orqali o`quvchi bilan aloqa bog`laydi. Bolalarning yoshini bilish o`qituvchi va oquvchi orasidagi hamkorlikni to`g`ri yo`lga qo`yishga keng imkoniyat yaratadi.

**4. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining real o`quv imkoniyatini aniqlash, bolalarning o`zlashtirish darajasiga qarab topshiriqlarni tabaqalashtirishga shart-sharoit yaratadi.** Topshiriqlar o`quvchilarning bilim saviyasiga mos bo`lsagina u samarali bo`ladi.

## **Boshlang`ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etish metodlari va shakllari**

Boshlang`ich sinflarda "Ona tili" fanini o`qitishning samaradorligi juda ko`p omillar bilan chambarchas bog`langan. Shubhasiz, o`quvchilarning psixologik xususiyatlari va o`quv imkoniyatlarini hisobga olish, ona tili ta`limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to`g`ri belgilash, o`qituvchi va o`quvchi o`rtasida pedagogik hamkorlikning o`rnatilishi, darsda ishga solinadigan vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi singarilarning barchasi samaradorlikni ta`minlash bilan aloqadordir.

Ana shu omillar ichida ona tili ta`limning mazmuni muhim va etakchi omil sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o`quvchilarga **"Nimani o`qitish?"** masalasi bilan chambarchas bog`liq. Ona tili ta`limidan o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko`nikmalar tizimi to`g`ri belgilansagina **"Qanday o`qitishi kerak?"** degan savolga javob topish mumkin. Demak,

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ona tilini o`rgatish jarayonida taqlid qilish (imutativ) va fonetik – artikulyatsion metodlar ham yaxshi samara ko`rsatadi.

O`quvchilarni to`g`ri talaffuz qilishga o`rgatish ko`proq taqlid metodiga tayanadi. Bu metod ko`proq talaffuzi qiyin tovushlar va so`zlarni aytishda qo`l keladi.

Taqlid metodi qiyoslash metodi bilan uyg`un holda olib borilsa, u samarali kechadi. Chunki qiyoslash jarayonida o`quvchi qaysi tovush yoki so`zlarni aytishda qiynalayotganligi ma`lum bo`ladi.

O`quvchini ta`lim jarayonining sub`ektiga aylantirish, uning "Ona tili" fanini o`rganishga bo`lgan qiziqishini oshirish, nafaqat ta`lim metodlari, balki dars shakllariga ham bevosita aloqadordir.

Boshlang`ich sinflarda ona tili darslarini turli no`anaviy shakllarda tashkil etish pedagogik texnologiyaning eng muhim talabi sanaladi. Ana shu noan`aviy dars shakllaridan biri "O`rganilgan yoki o`rganilayotgan bilimlar olamida sayohat" darslaridir. O`quvchilar sinfda o`tirib, bilimlar olamida sayohat qiladilar. O`qituvchi dars jarayonida beriladigan o`quv topshiriqlarini to`rt-besh "bekat"ga ajratadi. Muayyan bir "bekat" dagi o`quv qiyinchiligini enggan o`quvchi, o`qituvchi rahbarligida ikkinchi "bekat"ga yo`l oladi. Barcha o`quv qiyinchiliklarini yenggan o`quvchilar bilimlar mamlakatini zabt etadilar.

Norasmiy darslarning yana bir shakli o`yin darslaridir. Bu darslarda har bir topshiriq o`yin tarzida tashkil etiladi. Unli va undosh tovushlar ustida ishlayotganda "Tovushdosh so`zlar top", "Berilgan kataklarni tez to`ldir", "Tovush juftlari bilan farqlanuvchi so`zlar ro`yxatini davom ettir" kabi o`yinlardan foydalanish mumkin. Tilga olinayotgan topshiriqlarning musobaqa tarzida tashkil etilishi uni qiziqarli o`yinga aylantiradi va g`oliblarni aniqlab, ularni rag`batlantirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Quyida ana shu o`yinlardan namunalar keltiramiz:

**"Berilgan so`zlarga mas, kul, mo`l, to`l tovushdosh so`zlar top"** o`yini. O`quvchilar berilgan birinchi, ikkinchi, uchinchi tovushlarni o`zgartirib tovushdosh so`zlar (mas, qul-qo`l, qul-qol, qul-qil) hosil qilish topshiriladi. Topshiriqni birinchi bo`lib xatosiz bajargan o`quvchilar o`yin g`olibi sanaladi.

1-topshiriq. Alifbodagi harflarni ko`zdan kechiring. Talaffuzi va imlosi bir-biriga o`xshash bo`lgan tovush va harflarni aniqlang.

2-topshiriq. Rasmni diqqat bilan kuzating, mazmunini o`z so`zlaringiz bilan so`zlab bering.

3-topshiriq. Berilgan matnni o`qing; uning mazmunini o`z so`zlaringiz bilan so`zlab bering.

4-topshiriq. Berilgan so`zlarni kiyim-bosh, o`quv qurollari kabi guruhlarga ajrating.

Kitob, ro`mol, ruchka, kuylak, qalam, do`ppi, chizg`ich, pal`to, o`chirg`ich, daftar, xalat, kundalik, kastyum.

5-topshiriq. Berilgan gaplarni so`zlar qo`shib kengaytiring.

1. Yozdim. 2. Salimjon o`qidi. 3. O`lmasoy ko`rdi. 4. Bahor keldi.

6-topshiriq o va a harflari so`z boshida va so`z o`rtasida qo`llanilgan holatlarga 5 tadan so`z yozing.

7-topshiriq. Daftaringizga 8 ta d, t harflarining so`z boshi va oxirida keladigan holatlariga so`z yozing. Ularning imlosi va talaffuzdagi farqlarni tushuntiring.

8-topshiriq. Rasmdagi narsa - buyumlarni nomlang va yozing.

9-topshiriq. Berilgan rasmda bir necha sarlavha toping

10-topshiriq. Boshlanish qismi berilgan matnni davom ettiring.

### **Navoiy shahri**

Bizning Navoiy shahrimiz juda go`zal va chiroyli shahardir...

11-topshiriq. Tovushdosh so`zlar qatorini davom ettiring. So`z ma`nosini o`zgarayotgan tovushni aniqlang.

Qattiq, darra, alla, yalla, billur, sodda.

12-topshiriq. Berilgan so`zlarni tub va yasama so`zlarga ajrating.

Suv, suvchi, suvli; ish, ishla, ishsiz; maktab maktabdosh, maktabxon; gul, gulzor, gulla, gulsiz.

Sanab o`tilgan bu o`quv topshiriqlari o`quvchini ta`lim jarayoning sub`ektiga, o`qituvchini esa shu murakkab jarayonning tashkilotchisiga aylantiradi.

samaradorlik avvalo ana shu ikki omil bilan bevosita aloqadordir.

“**Nimani o`qitish?**” va “**Qanday o`qitish kerak?**” bir jarayonning ikki qirrasidir. Bular shu darajada bir-biri bilan bog`langanki, biri ikkinchisiz hech qanday samara ko`rsatmaydi.

Ona tili ta`limning samaradorligi, birinchidan, ta`lim mazmuni, ya`ni shu fandan o`quvchilarga beriladigan zaruriy bilim, malaka va ko`nikmalar tizimi bilan bog`liq bo`lsa, ikkinchidan, ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o`quvchilarning ona tilini o`rganishga bo`lgan qiziqishi, bilish ehtiyojini yuzaga keltiradigan vositalar bilan chambarchas bog`langan.

Ona tili ta`limning samaradorligini ta`minlovchi muhim vositalardan biri o`qitish metodini to`g`ri tanlanishidir.

Ona tili darslarida o`qituvchi ko`proq o`quvchi faoliyati bilan bog`liq metodlarga murojaat qiladi. Chunki o`quv materialini tushuntirib berish yoki o`quvchi duch keladigan tushuncha, ta`rif va qoidalar atrofida suhbat o`tkazish bilan o`rgatib bo`lmaydi. Ona tili mashg`ulotlarida o`quvchi ta`lim jarayonining sub`ekti ya`ni faol ishlovchisiga aylanib, har bir o`quv topshirig`ini aqliy faoliyat “chig`irig`i”dan o`tkazgan taqdirdagina o`quv materiallarni o`zlashtirish jarayoni ancha yengil kechadi va dars mashg`ulotlarining samaradorligi ta`minlanadi. O`qitishning amaliy metodlariga tayangan o`qituvchi o`quv topshiriqlarini bajarish jarayonida o`quvchining faolligini to`g`ri uyushtira oladi va uning muvaffaqiyatli kechishini ta`minlaydi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ona tilidan bilimlarni tayyor holda bayon qilish serunum metod sanalmaydi. Chunki bilimlar o`qituvchi tomonidan tayyor holda berilar ekan, o`qituvchi shu jarayonning ishtirokchisiga, tinglovchisiga va faqat andazaga qarab harakat qiluvchiga aylanib qoladi.

O`qituvchi faoliyati bilan bog`liq metodlarning eng serunumi muammoli o`qitishdir. Biz boshlang`ich sinf o`quvchilarining yosh hamda umumiy bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanishni maslahat beramiz:

**1. Ona tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o`rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish.** Chunonchi,

o`rganiladigan har bir mavzu o`quvchilardan tovushlar, so`zlar va gaplarni qiyoslashni, shu asosda umumlashmalar hosil qilishini talab etadi. Bu hol o`z-o`zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. O`quvchilarda “Nima uchun” degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug`iladi. Masalan, “Unli va undosh tovushlar” mavzusi o`rganilayotganda o`quvchi avval unli va undosh tovushlarni to`g`ri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida so`zlar, so`zlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi. O`quvchilar bu topshiriqlarni bajarish asosida umumlashma hosil qiladilar.

## **2. Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish.**

O`quvchi dars mashg`ulotini muammoli savolni o`rtaga tashlash bilan boshlaydi. Masalan, 1) unli va undosh tovushlarni alohida - alohida aytib ko`ring. Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz? 2) Oltita unli harf ishtirok etgan so`z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko`ring. Qanday o`zgarishlarni sezayapsiz? 3) undosh tovushlarni talaffuz etib ko`ring. Shovqin va ovozdan hosil bo`lgan undoshlar alohida, faqat shovqindan hosil bo`lgan undoshlarni alohida yozing. Agar topshiriqlarni bajarish muayan qiyinchilik to`g`dirsagina, namuna ko`rsatiladi.

Matn yaratish ham o`quvchi uchun muammo sanaladi. Buning ehg samarali yo`llaridan biri o`quvchilarga so`roqlar berib, ularga javob topishni talab qilishdir. Masalan, 1.O`zbekistonda qaysi tumanlar bor? 2. Ular qanday mahsulotlar etishtiradilar? 3. O`zbekistonning qaysi mevalari olamga mashhur? 4. O`zbekiston xorijiy mamlakatlarga qanday mahsulotlar chiqaradi? kabi

Bunday topshiriqlarni bajarib bo`lgandan keyin ijodiy matn yaratishi ancha osonlashadi. O`quvchilar hukmiga “Bog`da”, “Polizda”, “Sinfirmiz kutubxonasi”, “Sevimli ertagim”, “Aziz onajonim”, “Mehribon do`stlarim” singari mavzularda matn yaratish tavsiya etiladi.

## **3. Ramziy tasvirlar orqali muammoli vaziyatlar yaratish.**

Muammoli vaziyat yaratishning bu usulida ramziy tasvirlardan foydalaniladi. Masalan, O`zbekiston qovunlari rasmi va nomini berib, shunday mavzuda matn yaratish topshirilishi mumkin.

## **4. Muammoli vaziyat yaratishda til hodisalarini guruhlash, ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi.**

Ayniqsa, so`zlarni muayyan uyalarga birlashtirish, umumiy ma`noli so`zning xususiy ma`nosini yoki xususiy ma`noli so`zlarning umumiy ma`nosini topishni talab qilish muammoli vaziyat yaratish imkonini beradi. Masalan, o`quv qurollari, mevalar, sabzavotlar, daraxtlar va gullarning o`nlab, hatto yuzlab uyadoshlari borki, o`qituvchi umumiy ma`noli so`zni o`quvchilar hukmiga havola etadi va (zaruriyat bo`lsa, unga bitta namuna ko`rsatadi) qolgan so`zlarni topishni o`quvchilarga topshiradi.

Namuna: 1. Sabzavotlar:

sabzi

2. O`quv qurollari:

kitob

Ko`rinib turibdiki, muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan asosiy vosita o`quv topshirig`idir. O`quvchilarga beriladigan o`quv topshiriqlari qayta xotiralash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy harakterda bo`lishi mumkin.

Qayta xotiralash harakteridagi topshiriqlar o`quvchidan hech qanday izlanishni talab etmaydi. O`quvchi o`tgan darsda yoki undan oldingi mashg`ulotlarda o`rganilganlarni faqat takrorlashdan nariga o`tmaydi. Shu sababli, bunday topshiriqlar umumiy topshiriqlar miqdorining atigi 25-30% ini tashkil etmog`i lozim. Qolgan topshiriqlar esa qisman ijodiy va ijodiy harakterda bo`lishi kerak. Topshiriqlarning qisman ijodiy yoki ijodiy bo`lishi sinf o`quvchilarining o`quv imkoniyatlariga bog`liq. Agar o`quvchilarning o`zlashtirish darajasi past bo`lsa, o`z-o`zidan topshiriq qisman ijodiyga aylanadi. Chunki o`quvchi yo o`qituvchining tushuntirishi, yo ko`rsatilgan namunaga qarab ish ko`rishga majbur bo`ladi. Shuning uchun o`quvchilarning o`quv imkoniyatlari kengayib borgan sari, ijodiy topshiriqlar miqdori ham ortib borishi kerak.

Quyida biz ijodiy topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz:

